

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

zavodi ta'sirida o'zgarishi	260
M.Sh.Xidirov	
Geographical approaches to improving the territorial structure of service sectors in Kashkadarya region	265
D.X.Jo'raqulova, X.J., Jurakulov B.B. Malikov, Sh.A. Ravshanov	
Janubiy-g'arbiy O'zbekistonda antropogen landshaftlar shakllanishida g'orlarning tutgan o'rni (Surxondaryo havzasi misolida)	271
N.D.Qosimov	
Sangzor havzasining turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari va tabiiy resurslar tahlili	276
X.A.Abduxakimova, A.A.Nematov	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari va unumdorligi	280
S.A.Ibroximova, D.M.Xoldarov, B.M.Qo'chqorov	
Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari	287

GEOGRAFIYA

Y.I.Axmadaliyev, O.I.Abduganiev	
Biologik xilma-xillik bo'yicha kunming-monreal global dasturini (GBF) O'zbekistonda amalga oshirishning geoeologik asoslari	293
N.A.Esanov	
Shaharchalarning joylashgan o'rni iqtisodiy-geografik rivojlanish omili (Termiz tumani misolida)	307
M.T.G'oziyeva	
Zominsuv havzasining rekreatsiya resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni rivojlantirish yo'llari	313
M.T.G'oziyeva	
Zomin suv havzasida turizmni rivojlantirishiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillar	317
Sh.M.Sharipov, N.R.Samatova	
Toshkent viloyatida jar eroziyasi xavfi: DEM va GIS tahlili	322
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Aqlli ko'chat ekish mashinasi – yashil kelajak uchun innovatsiya	331
O.I.Abduganiev, D.B.Kosimov, Z.I. Mamirova	
Landshaftlardagi bog'lanishni modellashtirish asosida ekologik tarmoqlarni shakllantirish	337
L.M.Saydaliyeva	
Sakral landhsftlarning hosil bo'lishi va funksiyalari	346
A.A.Xamidov	
Farg'ona vodiysi tabiat komplekslarining xx-asrda tadqiq qilinishi natijalari	354
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Agroai drone – sun'iy intellektli aqlli qishloq xo'jaligi monitoring platformasi	357
U.T.Egamberdiyeva, A.B.Bozorboyev	
Xovos tumani aholisining joylanishi va demografik rivojlanish xususiyatlari	361
H.N.Naimov	
Shimoliy Farg'ona tog'oldi hududi landshaft-ekologik sharoitining hozirgi holati va uni baholash	367
J.A.Ismatov	
O'zbekiston monoshaharlari aholisi sonining dinamikasi	372
O.I.Abduganiev, T.D.Komilova	
MSPA-Mcr modeli asosida ekologik karkasni shakllantirish va optimallashtirish mezonlari	379
R.Y.Xoliqov, O.A.Qo'chqorov, S.B.Saydullayeva	
Landshaftlarning ekologik holatining o'zgarishi va ularni baholash:(Farg'ona vodiysi yirik shaharlar misolida)	395
B.R.Rapiqov	
Norin-Sirdaryo havzasidagi suv omborlaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari	399

EKOLOGIYA



UO'K: 911.375.2

**SHAHARCHALARNING JOYLASHGAN O'RNI IQTISODIY-GEOGRAFIK RIVOJLANISH OMILI
(TERMIZ TUMANI MISOLIDA)****ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ
ПОСЁЛКОВ ГОРОДСКОГО ТИПА КАК ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ
ТЕРМЕЗСКОГО РАЙОНА)****ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL LOCATION OF URBAN SETTLEMENTS AS DEVELOP-
MENT FACTORS (USING THE TERMEZ DISTRICT AS AN EXAMPLE)****Esanov Nazar Amanturdiyevich** 

Termiz davlat universiteti "Geografiya" kafedrasida katta o'qituvchisi, g.f.b.f.d., (PhD).

Annotatsiya

Maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan Termiz tumanida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi atroflicha tahlil qilingan. Xususan, tuman hududida joylashgan shaharchalarning tashkil topishi, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan o'sishi, shuningdek, shaharchalarning geografik joylashuvi va tabiiy resurslar bilan bog'liqligi o'rganilgan. Shu bilan birga, maqolada shaharchalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar - transport yo'llari, suv resurslari, qishloq xo'jaligi va sanoat imkoniyatlari, aholi zichligi hamda tumanning tarixiy va strategik o'ri kabi jihatlar tahlil qilinib, ularning urbanizatsiya jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritilgan.

Аннотация

В статье подробно проанализирован процесс урбанизации в Термезском районе Сурхандарьинской области. В частности, изучено формирование поселков в районе, их экономическое, социальное и культурное развитие, а также связь расположения поселков с географическим положением и природными ресурсами. Кроме того, в статье рассматриваются основные факторы, влияющие на развитие поселков - транспортные пути, водные ресурсы, возможности сельского хозяйства и промышленности, плотность населения, а также историческое и стратегическое положение района, и показано, как эти факторы воздействуют на процесс урбанизации.

Abstract

The article provides a detailed analysis of the urbanization process in the Termiz district of Surkhondaryo region. In particular, it examines the formation of settlements in the district, their economic, social, and cultural development, as well as the connection between the settlements' locations and the geographical features and natural resources. Furthermore, the article discusses the main factors affecting the development of settlements - transport routes, water resources, agricultural and industrial capacities, population density, and the historical and strategic position of the district - and demonstrates how these factors influence the urbanization process.

Kalit so'zlar. Termiz tumani, shaharcha, Uchqizil, Chegarachi Pattakesar (Mustaqillik), Namuna (Tajribakor), At-Termiziy, Limonchi, Qizilboy.

Ключевые слова: Термезский район, город, Учкизил, Чегарачи Паттакесар (Независимость), Намуна (Таджрибакор), Ат-Термезий, Лимончи, Кызылбай.

Keywords: Termez region, city, Uchkizil, Chegarachi Pattakesar (Independence), Namuna (Tajribakor), At-Termeziy, Limonchi, Kyzylbay.

KIRISH

Termiz tumani Surxondaryo viloyatining ma'muriy tumanlaridan biri bo'lib, 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Tumanning egallagan hududi 0,83 ming km² ni tashkil etadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra aholisi soni 87,2 ming kishi bo'lgani holda shahar aholisi 27,2 ming, qishloq aholisi esa 60,0 ming kishini tashkil etgan. Termiz tumani Surxondaryo viloyati tarkibida XX-asrda ma'muriy birlik sifatida paydo bo'lganligiga qaramasdan uning tarixi bir necha ming yillar oldinga borib taqaladi. Tuman o'zining janubda Afg'oniston va sharqda Tojikiston bilan o'tuvchi davlat chegarasiga ega ekanligi, uning hududiy chegaralari orqali O'rta Osiyoning eng sersuv daryosi-

Amudaryo oqib o'tishi, Surxondaryo daryosining Termiz shahari yaqinida Amudaryoga quyilishi kabi betakror geografik joylashuvi bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaharchalarning iqtisodiy-geografik rivojlanishini o'rganishda avvalo hududiy geografiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Bu manbalar Termiz tumani hududining tabiiy-geografik sharoitlari, suv resurslari, yer osti boyliklari va transport yo'llari bilan shaharchalarning bog'liqligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish va hududiy rejalashtirish bo'yicha ishlangan tadqiqotlar shaharchalarning savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyatidagi o'rnini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tarixiy manbalar esa shaharchalarning shakllanishi, strategik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Bundan tashqari, demografik va statistik tadqiqotlar shaharchalardagi aholi zichligi, mehnat resurslari va infratuzilma bilan bog'liq ko'rsatkichlarni o'rganish imkonini berdi.

Metodlar sifatida geografik kartografik yondashuv qo'llanilib, shaharchalarning tabiiy resurslar, transport va suv manbalariga nisbatan joylashuvi xaritalar orqali tahlil qilindi. Iqtisodiy tahlil metodlari shaharchalarning savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi va sanoat imkoniyatlarini baholashda qo'llandi. Historik-komparativ metod yordamida tarixiy manbalar tahlil qilinib, shaharchalarning rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, bugungi holat bilan solishtirildi. Shuningdek, demografik va statistik tahlil metodlari aholi zichligi, migratsiya jarayonlari va infratuzilma holatini o'rganishda ishlatildi. Hududiy-model yaratish metodikasi orqali esa shaharchalarning iqtisodiy-geografik rivojlanish potentsiali baholandi va vizualizatsiya qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi Surxondaryo viloyatida joylashgan Termiz tumanida urbanizatsiya jarayonlarining borishini tahlil qilish. Termiz tumanida joylashgan shaharchalarning shakllanishi va rivojlanishining o'ziga hos jihatlari o'rganish, shaharchalarning joylashgan o'rnini, shaharchalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar ahamiyatini ochib berish hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Termiz tumanida urbanizatsiya jarayonlarining mustaqillik davrida borishini tahlil qilish;

Tumandagi shaharchalarning rivojlanishi, shakllanishining o'ziga xos jihatlari o'rganish;

shaharchalarning joylashuvi bilan bog'liq masalalar, shaharchalarning genetik tipi va ixtisoslashuvini ochib berish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, erishilgan natijalar asosida tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Termiz tumani hududida viloyat markazi Termiz shahri joylashgan bo'lib u ayni vaqtda aholisi soni jihatidan ham viloyatning eng yirik shahri hisoblanadi (207,3 ming kishi 2025 y.). Biroq, shahar Surxondaryo viloyatining yagona viloyatga bo'ysunuvchi shahri ekanligini hisobga olsak u Termiz tumani tarkibiga kirmaydi.

Termiz tumanida 2009-yil Respublikamizda amalga oshirilgan urbanizatsiya siyosati natijasida shaharcha maqomini olgan yettita aholi manzilgohlari mavjud bo'lib bular Uchqizil, Chegarachi Pattakesar (Mustaqillik), Namuna (Tajribakor), At-Termiziy, Limonchi va Qizilboy shaharchalaridir [1].

Shaharlarning joylashgan o'rnini iqtisodiy-geografik jihatdan baholashda geourbanist olimlar ko'plab yondashuv va metodlarni taklif qilishgan. Jumladan, N.N. Baranskiy shaharlarning joylashgan o'rnini o'rganishda mikro, mezo va makro darajadagi iqtisodiy-geografik o'ringa katta e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi [2. 26-c].

Quyida Termiz tumani shaharchalarining joylashgan o'rnini mikro, mezo va makro datajalarda baholash va ularning shakllanishi hamda rivojlanishiga sanoat, transport, agrar sektor va boshqa omillarning ko'rsatgan ta'sirini o'rganishga harakat qilamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek bugungi kunda Termiz tumanida yettita shaharcha aholi manzilgohlari mavjud. Termiz tumani markazi hisoblangan Uchqizil shaharchasi mazkur shaharchalar ichida eng yirigidir. Shaharcha shu nom bilan ataluvchi suv ombori sohilida, viloyat markazi Termiz shahridan 20 km uzoqlikda joylashgan. Shaharcha ma'muriy jihatdan tuman markazi bo'lganligi sababli bu yerda tuman hokimiyati va tizimning boshqa tashkilotlari, ko'p tarmoqli tuman shifoxonasi, banklar va ularning filiallari faoliyat olib boradi. O'z vaqtida temir yo'l uzeli sifatida shakllangan shaharcha mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab tuman markaziga aylandi [3. 114-b].

GEOGRAFIYA

Mikrogeografik jihatdan qaralganda Uchqizil shaharchasi biroz noqulay joylashuvga ega. Bu noqulaylik tumanning boshqa shaharchalariga nisbatan uning biroz olis masofada joylashganligi bilan belgilanadi. Jumladan, unga eng yaqin masofada joylashgan Limonchi shaharchasigacha bo'lgan masofa 6 kilometr, eng olis shaharcha Chegarachigacha bo'lgan masofa esa 27 kilometrni tashkil qiladi (1-jadval). 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki Uchqizildan boshqa shaharchalargacha bo'lgan jami masofa 97 kilometr, boshqa shaharchalarga nisbatan o'rtacha masofa 16,17 kilometrga teng.

1-jadval

Termiz tumani shaharchalari oraliq masofasi (km da)

	Shaharchalar	At-Termiziy	Namuna	Limonchi	Pattakesar	Uchqizil	Qizilboy	Chegarachi	Boshqa shaharchalarga bo'lgan masofa	
									jami	o'rtacha
	At-Termiziy		6	7	16	11	15	22	77	12,83
	Namuna	6		11	15	7	20	26	85	14,17
	Limonchi	7	11		15	6	22	25	86	14,33
	Pattakesar	16	15	15		20	10	18	94	15,67
	Uchqizil	11	7	6	20		26	27	97	16,17
	Qizilboy	15	20	22	10	26		9	102	17
	Chegarachi	22	26	25	18	27	9		127	21,17

Jadval: O'zbekiston Milliy atlas ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi [4. 41-b].

Izoh: Oraliq masofani hisoblashda eng yaqin yo'nalish bo'yicha avtomobil yo'llari masofasi olindi.

Tumanning boshqa shaharchalarining geografik joylashuvi ham Uchqizil shaharchasi joylashuviga juda o'xshash ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, Namuna shaharchasidan unga eng yaqin shaharcha At-Termiziygacha bo'lgan masofa 6 kilometr bo'lsa eng olis shaharcha Chegarachi bo'lib ungacha bo'lgan masofa 26 kilometrni tashkil etadi. At-Termiziy shaharchasi Termiz tumanidagi boshqa shaharchalar orasida eng markaziy, transport va muloqot nuqtai nazaridan eng qulay joyda joylashgan bo'lib, undan boshqa shaharchalarga bo'lgan o'rtacha masofa 12,83 kilometrga teng.

Chegarachi shaharchasi barcha shaharchalar ichida eng noqulay joylashuvga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, unga eng yaqin shaharcha Qizilboygacha masofa 9 kilometr, eng olis shaharcha esa tuman markazi hisoblangan Uchqizil bo'lib, oraliq masofa 27 kilometrni tashkil etadi. Chegarachidan boshqa shaharchalarga bo'lgan o'rtacha masofa 21,17 kilometrga teng.

Tuman shaharchalarining bu kabi mezogeografik jihatdan noqulay joylashuvi ularning o'zaro bog'liq holda rivojlanishiga biroz to'sqinlik qiladi. Ayni vaqtda shaharchalarning hudud bo'ylab bu qadar notekis taqsimlanishi sabablarini o'rganish orqali yuqoridagi muammoning kelib chiqish sabablarini tushinish mumkin.

Shaharchalarning katta qismi XX-asr o'rtalarida mamlakatimizning boshqa joylarida kuzatilgani singari, qishloq xo'jaligi maqsadlarida yangi yerlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq jarayonlarda ilgari aholi manzilgohlari bo'lmagan hududlarda barpo qilingan qishloqlar sifatida paydo bo'lishgan bo'lsa, so'ngra transport nuqtayi nazaridan qulay joylashuvi tufayli rivojlanib, shaharcha maqomiga ega bo'lishgan (2-jadval).

2-jadval

Termiz tumani shaharchalarining genetik tiplari

	Shaharchalar	Genetik tipi	
		Tarixiy	Bugungi kunda
	At-Termiziy	Qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi natijasida	Agroindustrial shaharchalar
	Namuna		

	Qizilboy	vujudga kelgan agroindustrial shaharchalar	
	Chegarachi		
	Limonchi		Ilm-fan, universitet shaharchasi
	Pattakesar	Transport tugunida (qadimdan Amudaryo kechuvida joylashgan) joylashgan shaharcha	Agroindustrial shaharcha
	Uchqizil	Transport tugunida (temir yo'l stansiyasi negizida paydo bo'lgan) joylashgan shaharcha	Tuman markazi, rekreatsiya shaharchasi

Jadval: O'rganishlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Izoh: Mazkur shaharchalarni genetik tiplarga ajratishda prof. A.Soliyev metodikasi asosi sifatida olindi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tumanning At-Termiziy, Namuna (Tajribakor), Qizilboy, Chegarachi va Limonchi shaharchalari qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi natijasida vujudga kelgan agroindustrial shaharchalar hisoblanadi. Tuman markazi hisoblangan Uchqizil shaharchasi paydo bo'lishiga hududda ishga tushirilgan temir yo'l stansiyasi sabab bo'lgan bo'lsa, Pattakesar (Mustaqillik) shaharchasi shakillanishi va shaharcha maqomini olishida uning qadimdan Amudaryo kechuvida joylashganligi ko'rsatgan deyish mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan yana shuni ko'rish mumkinki, Limonchi shaharchasining bugungi kundagi rivojlanishida Termiz davlat pedagogika instituti shu hududda joylashganligi uning genetik tipini ilm-fan, universitet shaharchasiga o'tkazilishiga sabba bo'lmoqda deyish mumkin. Yuqorida ta'kidlangani singari bir vaqtlar transport tugunida (temir yo'l stansiyasi negizida paydo bo'lgan) joylashgan Uchqizil shaharchasi ham bugungi kunda nafaqat tuman markazi sifatida, balki Uchqizil suv ombori sohilida barpo qilingan ko'plab sanatoriylar va boshqa shifo maskanlari tufayli rekreatsiya shaharchasiga aylanib ulgurgan.


Tuman shaharchalari ichida Pattakesar qadimiy aholi manzilgohi hisoblanadi. Amudaryo kechuvida joylashgan qishloqcha sifatida paydo bo'lgan va yashab kelgan bu shaharcha Termiz daryo porti va Termizdan 10 kilometr sharqda, Amudaryo bo'ylab qurilgan "Hayraton" ko'prigi ishga tushirilishi munosabati bilan o'zining qadimiy ahamiyatini yo'qotdi va agroindustrial shaharchalardan biriga aylandi. Bugungi kunda Pattakesar shaharchasi ma'muriy jihatdan Termiz tumaniga tegishli bo'lishiga qaramasdan rivojlanish jarayonlarining bog'lanib ketganligi, o'ziga xos geografik joylashuvi (Surxondaryo daryosining suvini Amudaryoga keltirib quyuvchi qismida shuningdek, Amudaryo orqali o'tgan davlat chegarasiga taqalganligi) sababli allaqachon, Termiz shahrining bir qismiga aylanib ulgurgan deyish mumkin.

Makrogeografik jihatdan qaralganda tumanning Chegarachi va Limonchi shaharchalari kelgusida rivojlanishi uchun ijobiy bog'liqliklarga ega. Bu bog'liqlik Chegarachi shaharchasida uning 2024-yilda ishga tushirilgan (2024-yil 9-avgust kuni rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tgan) "Termiz xalqaro savdo markazi" yaqinida joylashganligi va bevosita ushbu markazga logistika hamda xizmat ko'rsatish orqali bog'langanligi bilan belgilansa, Limonchi shaharchasi rivojlanishi Toshkent-Termiz avtomobil yo'li hisoblangan "Katta O'zbek trakti" bo'yida joylashganligi va uning hududida viloyatda talaba soniga ko'ra uchinchi o'rinli oliygoh hisoblangan Termiz davlat pedagogika instituti joylashganligi bilan belgilanadi.

Termiz tumanining boshqa shaharchalari masalan, Uchqizil tuman markazi sifatida rivojlanishda davom etsada, Namuna (Tajribakor), At-Termiziy va Qizilboy shaharchalari yaqin kelajakda ham agroindustrial shaharcha maqomini saqlab qolishi mumkin. Buning asosiy sabablari ular joylashgan hududlar tumanning asosiy qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan yerlarda joylashganligi bilan belgilanadi. Mazkur hududlarda bugungi kunga qadar biror bir qishloq xo'jaligi yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tarmoq korxonalari faoliyati yo'lga qo'yilmaganligi tufayli shaharchalarning rivojlanishi past darajada bormoqda deyish mumkin.

GEOGRAFIYA

Bu agroshaharchalar ichida aholi soniga ko'ra eng yirigi ayni vaqtda eng qulay joylashuvga ega Namuna (Tajribakor) shaharchasi hisoblanishiga qaramasdan uning rivojlanishi bevosita Termiz shahari rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.



1-rasm. Termiz shaharining hududiy rivojlanish xarita-sxemasi
(xarita-sxema muallif tomonidan tuzilgan)

Tuman hududida joylashdano, viloyat markazi Termiz shahrini kelajakda janubga, janubi-g'arbg (Afg'oniston bilan Amudaryo orqali davlat chegarasi o'tgan) va shimoli-sharqiy yo'nalishda (Kattaqum cho'li bilan o'ralganligi) kengaytirish imkoniyatlarini biroz cheklashi va 2019-yil 9-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining "Surxondaryo viloyati Termiz tumani chegarasini o'zgartirish, Termiz shahri chegaralarini kengaytirish va tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga asosan amalga oshirilgan o'zgarishlarga muvofiq Termiz shahri tarkibiga Termiz tumanidagi "Manguzar", "Chegara", "Pattakesar", "Tinchlik", "Alisher Navoiy", "Kokildor ota", "Nurli Diyor" va "Namuna" singari bir nechta mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarining (umumiy maydoni 1561 gektar) bir qismi yoki to'liqligicha o'tkazish tajribasi kuzatilganligini hisobga olsak, Termiz shahrining hududiy kengayishi kelgusida aynan Namuna (Tajribakor), At-Termiziy va Qizilboy shaharchalari hisobiga ro'y berishini bashoratlaydi (1-rasm).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Termiz tumani misolida shaharchalarning joylashuvi ularning iqtisodiy va geografik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Shaharchalar ko'pincha suv manbalari, transport yo'llari va tabiiy resurslarga yaqin hududlarda shakllangan bo'lib, bu ularning savdo, qishloq xo'jaligi va boshqa iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratgan. Shu bilan birga, geografik joylashuv hududlararo iqtisodiy aloqalarni osonlashtirib, mahalliy ishlab chiqarish va bozor tizimining shakllanishiga xizmat qilgan.

Termiz tumani misolida o'rganilgan shaharchalarning rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, tabiiy resurslar, transport va ijtimoiy infratuzilma sharoitlari shaharchaning iqtisodiy imkoniyatlarini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu tariqa, shaharchalarning joylashuvi va iqtisodiy-geografik imkoniyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hududni rejalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda asosiy nazariy va amaliy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Natijada, Termiz tumani shaharchalarining joylashuvi ularning iqtisodiy rivojlanish potentsialini belgilovchi asosiy omil bo'lib, bu hududlarni yanada barqaror, strategik va samarali rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martda "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
3. Баранский Н.Н. Об экономико-географическом изучении города. - М, 1956. - С 26
4. N.A. Esanov, M.N.Erdanov, B.O.Abdumo'minov "Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari fanidan amaliy mashg'ulotlar" o'quv qo'llanma. T. 2024. 114-b.
5. O'zbekiston milliy atlas. T. 2020-y. II-jild. 41-b.